

**INKLUZIV TA'LIM SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI**

*Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna*

*Odilova Zuhraxon Xojikurban qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yo'nalishi talabasi.*

**Аннотация:** Данная статья посвящена освещению основных правовых принципов в процессе формирования и реализации политики инклюзивного образования. Инклюзивное образование – это процесс включения детей с ограниченными возможностями и других нуждающихся групп в систему общего образования с целью создания равных возможностей. Правовая основа данного подхода базируется на международных и национальных документах, в том числе Конвенции ООН о правах инвалидов, Всеобщей декларации прав человека, Законе Республики Узбекистан «Об образовании» и других правовых документах.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, Правовая основа, Права инвалидов, Равные возможности, Конвенции ООН, Национальное законодательство, Образовательная политика, Социальная справедливость, Равное право на образование, Правовые механизмы, Законодательство Республики Узбекистан, Интеграция системы образования, Особые дети в необходимости, Правовая защита, Государственная политика

**Annotation:** This article is dedicated to highlighting the main legal principles in the process of forming and implementing inclusive education policy. Inclusive education is the process of including children with disabilities and other needy groups in the general education system, aiming to create equal opportunities. The legal basis of this approach is based on international and national documents, including the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, the Universal Declaration of Human Rights, the Law on Education of the Republic of Uzbekistan and other legal documents. .

**Keywords:** Inclusive education, Legal basis, Rights of the disabled, Equal

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

*opportunities, UN conventions, National legislation, Education policy, Social justice, Equal right to education, Legal mechanisms, Legislation of the Republic of Uzbekistan, Integration of the education system, Special Children in need, Legal protection, State policy*

### **KIRISH**

Inkluziv ta'lim inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda barcha bolalar, shu jumladan, maxsus ehtiyojga ega bo'lgan shaxslar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan siyosatdir. Ushbu maqola inkluziv ta'lim siyosatini qo'llab-quvvatlovchi huquqiy asoslarni tahlil qiladi va uning ahamiyatini yoritib beradi. Inkluziv ta'limning asosiya maqsadi barcha bolalar, jumladan, nogironligi bo'lgan yoki boshqa maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan shaxslarni jamiyatning faol a'zolari sifatida rivojlantirishdir. Bu siyosat ta'lim tizimini shunday tashkil qilishni nazarda tutadiki, har bir bola teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Inkluziv ta'limni amalga oshirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega: Tenglik: Ta'lim olishda diskriminatsiyani yo'q qilish. Moslashuvchanlik: Har bir bolaning ehtiyojlariga moslashgan ta'lim usullarini qo'llash, hamkorlik: Oilalar, o'qituvchilar va jamiyat a'zolari o'rtaida samarali hamkorlikni rivojlantirish, huquqiy asoslar Inkluziv ta'lim siyosatini amalga oshirish uchun milliy va xalqaro miqyosda qator huquqiy asoslar mavjud. Ular quyidagilardan iborat: *BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi* (2006) Ushbu konvensiya nogiron shaxslarning barcha sohalarda, jumladan, ta'limda ham teng huquqlarini himoya qilishni talab qiladi. 24-moddada nogiron bolalar uchun inklyuziv ta'lim muhitini yaratish majburiyati belgilangan. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi* (1948) 26-moddasida har bir insonning ta'lim olish huquqi kafolatlangan va ta'lim imkoniyatlari tengligini ta'minlash zarurligi ta'kidlangan. *Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya* (1989) 28 va 29-moddalarda barcha bolalar uchun sifatli va teng imkoniyatli ta'limni ta'minlash zarurligi belgilangan. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* 41-moddada har bir fuqaro ta'lim olish huquqiga ega ekani va davlat bepul umumiyligi ta'limni kafolatlashini belgilaydi. Ta'lim to'g'risidagi qonun Ushbu qonunda maxsus ehtiyojga ega bolalar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

uchun moslashtirilgan ta'lim sharoitlarini yaratish majburiyati ko'rsatilgan. Inkyuziv talimning maqsad va vazifalari. Inklyuziv talim tizimida quyidagi maqsad va vazifalami hal etish talab etiladi: talim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va osmirlarning bilim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlami yaratish, ulaming imkoniyatiga yonaltirilgan umumtalim dasturlari va korreksion ishlami amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilaming talimdagi teng huquqliligin kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va soglom bolalaming ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va osmirlami oilalardan ajramagan holda yashash huquqini royobga chiqarish; jam.iya.tda imkoniyati cheklangan bolalar va osmirlarga nisbatan dostorm va mehr-muhabbat munosabatini shakllantirish.

Inklyuziv talimda resurs pedagog va uning vazifalari. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumtalim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi oqituvchi, yani, resurs oqituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv talim amaliyotida maktablararo qatnab yuruvchi oqituvchi va oddiy sinf oqituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bazi sinflarda bolani malum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bolishi mumkin. Hamma vaqt resurs oqituvchi sinf oqituvchisi bilan birqalikda faoliyat korsatishi va maxsus talim sohasida mutaxassislikka ega bolishi talab qilinadi. Maktablararo qatnab yuruvchi resurs pedagog nogiron bolalarni ular uchun zarur bolgan qollanmalar, jihozlar bilan taminlaydi, homiylar topadi, imkoniyati cheklangan bolalar, soglom bolalar hamda sinf oqituvchisi ortasidagi mustahkam aloqani omatadi, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf oqituvchilar va maktab mamuriyatiga rnaslahatlar beradi. Resurs oqituvchi faoliyatidan kozlangan asosiy maqsad: umumtalim muassasalarida talim olayotgan maxsus talimga muhtoj Oquvchilar va ulaming oqituvchilariga yordam korsatishdan iborat.

Amaliyotdagi muammolar va imkoniyatlar Inkluziv ta'limni hayotga tatbiq etishda qator muammolar mavjud: Moliya va resurslar yetishmasligi: Maxsus ta'lim ehtiyojlari uchun zarur infratuzilma va jihozlarning cheklanganligi. Kadrlar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

tayyorlash: Inkluziv ta'lim tamoyillarini tushunadigan va qo'llay oladigan pedagoglarning yetishmasligi. Jamoatchilik ongini oshirish: Ba'zi jamiyatlarda maxsus ehtiyojga ega bolalarga nisbatan stereotip va kamsituvchi qarashlar mavjudligi. Shu bilan birga, O'zbekistonda so'nggi yillarda inkluziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda, pedagoglarni qayta tayyorlash dasturlari joriy qilinmoqda.

### **XULOSA**

Inkluziv ta'lim siyosati barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishishning muhim vositasidir. Bu borada quyidagilarni amalga oshirish zarur: Inkluziv ta'limga oid qonunchilikni takomillashtirish va uning ijrosini nazorat qilish. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun zamonaviy infratuzilma yaratish. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Jamoatchilik ongini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari olib borish. Shunday qilsak, jamiyatimizda har bir bola teng imkoniyatlarga ega bo'lib, to'laqonli hayot kechirishiga erishishimiz mumkin. Inkluziv ta'lim siyosatini amalga oshirish nafaqat bolalarning kelajagi, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun ham muhimdir.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T: SANO-STANDART, 2017.
- 2.Xodjayev B.X. Choriyev A, Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik-T: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
- 3.Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova G, Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik-T: TDPU, 2012.